

ALISHER NAVOIYNING DAVR VA ZAMONDOSHLARI HAQIDAGI SHE'RLARIDA HASBI HOL

Raximova G., Norbekova S.

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning tarixiy davr, uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti, zamon va zamon ahli haqidagi mulohazalari aks etgan hasbi hol tarzidagi she'rlari badiiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *poetika, hasbi hol, tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot, kayfiyat, kechinma.*

Аннотация

В статье анализируются стихи Алишера Навои в стиле хасби хол, в которых отражены его размышления об историческом периоде, его общественно-политической, культурной жизни, времени и людях того времени.

Ключевые слова: *поэтика, особый случай, исторический период, общественно-политическая, культурная жизнь, настроение, опыт.*

Abstract

The article analyzes Alisher Navoi's poems in the style of hasbi hol, which reflect his thoughts about the historical period, its social-political, cultural life, the time and the people of the time.

Keywords: *poetics, personal case, historical period, social-political, cultural life, mood, experience.*

Har bir buyuk shoir, avvalo, o'zini dunyoga keltirgan ona zaminining va ana shu ona zamin uzra hukmron bo'lgan ma'lum bir tarixiy sharoitning, ma'lum davr va zamonning farzandidir. Shuning uchun ham shoirning shaxs sifatida shakllanib kamolotga erishuvida u yashagan zamin-u zamonning ta'siri benihoya katta. Avvalo, shoirning taqdiri va hayot yo'li u yashagan davrining ijtimoiy muhiti va sotsial masalalari bilan tayin etiladi. Shu boisdan ham shoir tarixiy davr, uning ijtimoiy muhiti, muammo va ziddiyatlari bilan birga yashaydi. Uning boy badiiy ijodi ham o'sha tarixiy sharoit va davr hayoti bilan ma'lum ma'noda bog'liq bo'ladi. Shu sababdan ham Navoiy shaxsini va hayotini to'la tushunish uchun uning o'z davriga munosabatini ifodalovchi me'rosini o'rganish lozimdir. Binobarin, Navoiy asarlarining muhim fazilatlaridan biri ham unda bevosita shoirning o'z zamonasiga doir qayd va ishoralarni real aks ettirilganligidir. Butun insoniyatga Alisher Navoiydek ulug' shoirni yetkazib bergan zamon (XV asrning ikkinchi yarmi)da

butun Movarounnahr va Xuroson mamlakatida temuriylar sulolasi hukmronlik qilar edi. Alisher Navoiyning butun umri va bosib o'tgan hayot yo'li temuriylar hukmronligi davri bilan bog'liq. Shu boisdan buyuk shoirning hayot yo'lini to'rt temuriyzoda podshohlar hukmronligi davriga bo'lib, uning otashin ijodini o'sha davr va zamonning sotsial-ijtimoiy hodisalariga bog'lab o'rganish maqsadga muvofiqdir. Navoiy o'zining dastlabki devoni "Badoye' ul-bidoya"ga yozgan "Debocha"sida o'z oilasining temuriylar xonadoniga yaqinligini, o'zining "ota-onadan yetti pushtigacha", "oliy darajali xonadonning" samimiy xizmatchisi bo'lganligini ta'kidlaydi:

Otam - bu ostonning xokbezi,

Onam ham bu sapo bo'ston kanizi [1].

Alisher Navoiyning tug'ilgan va ilk bolalik, o'smirlilik chog'lari o'tgan davr esa, temuriyzoda podshohlar Shohrux va Abulqosim Bobur hukmronligi vaqtiga to'g'ri keladi, u davr ulug' bobokalonimiz davlatining inqirozga yuz tutishi, mamlakat uning avlodlari tomonidan alohida kichik-kichik davlatlarga bo'linishi, bu davlatlar o'rtasida o'zaro urush-janjall hamda nizo va kelishmovchiliklarning avj olishi bilan xarakterlanadi. Shunday bo'lsa-da, buyuk shoir hayotining shakllanishi va kamolotga erishuvida bu davr muhim ahamiyatga molikdir. Chunki Shohrux va Abulqosim Boburlar hukmronligi davrida Xuroson mamlakatining iqtisodiy va madaniy hayoti ancha yuksaklikda taraqqiy etgan edi. Ayniqsa, she'riyat madaniy hayotning belgisi, ma'naviy ozuqa manbai bo'lib qolgan edi. Navoiy o'zining bu vaqtdagi hayotini tasvirlar ekan, she'riyatning sehrli olamiga kirib kelishi va ijodiy muvafaqqiyatga erishuvida bu davrning alohida qimmatli ta'siri bo'lganligini zo'r hayajon va iftixor bilan so'zlaydi. "...ul chog'kim Xuroson taxti ko'ragonliq duvoji ila ziynatafzoy va Ko'ragon farqi jahonbonliq toji bila falakfarsoy erdi, umrum shabistoni shabob sha'mlari nuridin munavvar va hayotim gulistoni yigitlik gullari atridan muattar erdi, ...Chun tab'i jibilliy salomatdin va jibillat zoti istiqomatdin oriy ermas erdi, oshiqlik ko'chasidakim, ajib holatg'a g'oyat va xumorliq mahallasidakim, g'arib mushkilotg'a nihoyat yo'qturur; ishkda xoh habib jamoli hayratidin va xoh raqib xayoli g'ayratidin va xoh visol bahori intizoridin va xoh firoq xazoni xor-xori iztiroridin har nav' ish yuzlansa erdi; va manda mastliq ayshu tarabidin va xoh maxmurliq ranju taabidin va xoh mayfurush inoyatidin va xoh muhtasib shikoyatidin har amr voqi' bo'lsa erdi, ul holg'a loyiq va ul xayolga muvofiq:

Ko'nglumda ne ma'ni o'lsa erdi paydo

Til aylar edi nazm libosida ado".

Alisher Navoiy hayotining keskin o'zgarishiga va og'ir mashaqqatli damlarni o'z boshidan kechirishi, g'urbatda g'ariblikda, sarson-sargardonlikda,

musofirchilikda yurt kezishiga sababchi bo'lgan davr bu Sulton Abu Said hukmronligi davri edi. Shuning uchun ham Navoiyning bu davrdagi ijodida o'z ahvolidan va turmush tarzidan xafalanish, zamon va zamon kishilaridan nolish kayfiyatlari ifodalanadi. Navoiyning Mashhadda tahsil olib Hirotga qaytganidan so'ng qanday ahvolga tushganligi, uni Sulton Abu Said tomonidan bee'tiborlik bilan qarshi olinganligi, buning ustiga ta'qib va taz'iy q ostida yashaganligi aks ettiriladi[2]. Podshoh nazoratida yashagan shoirga nisbatan barcha hukmron doiralarning shubha bilan qarashi va o'z zo'rovonliklarini o'tkazmoqchi bo'lishlari o'sha davrga xos bo'lgan tabiiy bir hol edi.

Netib o'lmayin, ey Navoiyki, zulm
Qilur barcha mirzoyu miyrak manga.

Navoiyga nisbatan xayrixoh bo'lgan kishilar esa, u bilan muloqotga kirishishga podshohning g'azabidan cho'chigan bo'lishlari ham mumkin. Shuning uchun ham ma'naviy yolg'izlik iskanjasida qiynalgan shoir o'z yashagan muhitidan, davr va davr ahlidan qattiq ranjiydi, qayg'uga botadi. Hattoki, o'z yurtini tark etib ketishni ham ixtiyor etadi.

Ey ko'ngul, bir nav' o'lubmen ahli davrondin malul.
Kim erurmen kimki andin yaxshi yo'q, andin malul.

Tengri xalq etmish meni go'yo malomat chekkali,
Kim, dame yo'qkim, emasmen xalqi nodondin malul.

Ey mug'anniy, tut "Iroq" ohangiyu ko'rguz "Hijoz"
Kim, Navoiy xotiri bo'lmish Xurosondin malul [3].

Sulton Abu Said hukmronligi davrining asl qiyofasi zulm va bid'atning, bosqinchilik va zo'rovonlikning kuchayishi, mamlakatning xarob, yurtning xonavayron bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Navoiyning bu davrga munosabati ko'pgina g'azal va baytlarida, ayniqsa, "Hasbi hol" nomi bilan mashhur bo'lgan ustoz Sayyid Hasan Ardasher nomiga yozilgan masnaviysida juda haqqoniy aks ettirilgan. Podshoh odamlari tomonidan Hirot mulkining talon-taroj etilganligi, xalqlar och, yalang'och, yerlarining xarobaga aylantirilganligi va bir vaqtlar jannatdek makon bo'lgan Xuroson eli do'zaxdan ham battar holga tushganligini Navoiy turli xil tashbeh va istioralar yordamida yuksak poetik ehtiros bilan tasvirlaydi:

Dema mulkkim, vahshatobodi zisht,
Tamug' bilgurib g'oyib o'lgach bihisht.

Imorotida ganjdin yo'q asar,
Xizona xaroba bo'lub sarbasar.

Ham el manzilin shah katakdek buzub,
Tovug' o'rnig'a chug'd o'lturg'uzub.

Ne el, ne kishi, balxi shaytonu dev,
Kelib barchag'a da'b bedodu rev.

Ne vayronda eski tanobe bilib,
Yilon sog'inib, ganj da'vo qilib.

O'lum kelsa bir zori bedil sari,
Madad aylabon lek qotil sari [4].

Mamlakatni adolatsiz va zolim podshoh boshqarar ekan, yurtida ana shunday buzg'unchilikning avj olishi, madaniyatning tanazzulga yuz tutishi muqarrar ekanligini his qilgan shoir Sulton Abu Saidga nisbatan nihoyatda salbiy munosabatda bo'lgan. Alisher Navoiyning quyidagi qit'asida "ajdaho"ga nisbat berilgan shoh obrazi bizningcha, Sulton Abu Saidga qaratilgan bo'lishi kerak.

Jahon ganjida shoh erur ajdaho,
Ki, o'tlar sochar qahri hongomida.
Aning qomi birla tirilmak erur,
Maosh aylamak ajdaho komida.

Navoiy ijodining shu davrida ishlatilgan zamon, zamon ahli, zamonning beshafqatligi, zamon ahlining firibgarligi kabi tushunchalar zamirida shoir hayotining o'sha vaqtdagi chuqur drammatizmi, hayotiy kechinma va mulohazalari o'z aksini topgan:

Xotirim, ham davr-u ham davr ahlidin ozurdadur,
Ey Navoiy, istama pand aytib ozorim mening.

Menki, davron zulmidur ko'nglumga, balkim jong'a ham,

Naylay olg'aymen angakim, zulm etar davrong'a ham [5]

Quyidagi baytlar ham bevosita hayotiy mazmun kasb etadi. Chunki unda o'zini shu bo'g'iq muhitda, yovuz va makkor kimsalar qurshovida yolg'iz sezgan shoirning bu makondan bosh olib ketish istagi ifodalanadi. Bu baytlar Navoiyning Samarqandga ketishi arafasidagi ruhiyati va kechinmalarining ifodasidir deyishimiz mumkin:

Ey Navoiy, dahr bog'idin qutulmoq istakim,
Bulbul uchqan yaxshiroq zog'-u zag'on ma'vosidin.
Bu kun ahli jahondin xasta xotirmen, jahondin ham
Demon ahli jahon birla jahon, billahki, jondin ham.

Navoiyning ko'pgina bayt va g'azallarida ishlatilgan "dahr", "charx", "aflok", "anjum", "davron", "g'amxona" va boshqa shu kabi badiiy poetik obrazlar zamirida uning o'z yashagan davri va mavjud ijtimoiy tuzumga munosabati chuqur falsafiy ruhda bayon qilinadi. Shoir, umuman borliq haqida fikr yuritar ekan, "dahr"ni jafo-pesha, "charx"ni sitamkor, "olam"ni berahm, "aflok"ni zolim, "anjum"ni bemehr, "davron"ni bebok deb baholaydi. O'zi yashagan zamonni va muhitni esa "g'amxona", "motamxona", azob-u uqubatlari, qayg'u va kulfatlar, adolatsizliklar makoni deb hisoblaydi:

Necha jafovu sitam tortqay ahli vafo,
Dahri jafo-peshadin, charxi sitamkordin.

Berahmdurur olamu zolim aflok,
Bemehrdurur anjumu davron bebok.

Charx motam etkurur, biz dag'i oncha yig'loli,
Kim, kuhan g'amxonasi ul sayldin qilsun nishast [6].

Quyidaga bayt esa ana shunday jabr-u jafolardan ozurda bo'lgan shoir qalbining o'tli nolasi, oh-u fig'onidir:

Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin,
Jonima har birining javru jafosinmu deyin?

Navoiy zamon va davr haqida fikr yuritar ekan, mavjud ijtimoiy muhitni adolatsiz, zamonni zolim va beshafqat degan qat'iy xulosaga keladi. Mana shu zamonning jabr-u jafosidan nolish, undagi hukmron bo'lgan kuchlarning

yovuzligidan, pastkashligidan nafratlanish kayfiyatlarini “may” obrazi orqali soqiyga murojaat tarzida ifodalaydi:

Jomima har davr quy, soqiy, halohil zahrikim,
Tax-batah qondur ichim tosi nigun davronidin.
yoki:
Davrdin ko‘p ranjamen, usruk chiqib mayxonadin,
Raxshi himmat uzra solmoq istaram davronga ot.
yoki:
Bazm aro har ham qadah ko‘ngli to‘la xunob erur,
Men kebi go‘yo anga ham etti davrondin malol [7].

Navoiy she‘riyatida va umuman Sharq lirik poeziyasi tarixida “may” obrazi turli xil insoniy holat va kayfiyatlarning badiiy ifoda ramzi bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham quyidagi baytda shoir mayni zulmga, g‘am-u hasratga qarshi shodlik va dilxushlik ramzi sifatida qo‘llaydi. Davrning o‘zi zulmkor va shafqatsiz ekan, uning bu yovuz qilmishlaridan g‘am-u kulfatga botmoqlik befoyda ekanligini, buning o‘rniga xursandchilik va shodlik bilan o‘z ko‘nglini xushvaqt qilish insonlarga xos bo‘lgan yuksak xususiyatlar ekanligini pand-nasihat ruhida bayon qiladi:

Davron sanga zulm etsa, qadahlar to‘la may ich,
Qon yutsang ayog‘lar to‘la davronga ne parvo.

Alisher Navoiy hayotining shu davriga mansub ijodida zamon va zamon ahli haqidagi fikr va mulohazalari, o‘z yashagan davriga, mavjud ijtimoiy muhitga munosabati turli xil aspekt va yo‘nalishlarda, rang-barang tematik ko‘rinishlarda ifoda qilingan. Biz bu qarashlarni faqat shoirning o‘z shaxsi bilan bog‘liq tomonlari haqida fikr yuritdik, xolos.

Alisher Navoiy hayotining keyingi bosqichlari Husayn Boyqaro va uning farzandlari hukmronligi davri bilan bog‘liq. Temuriylar taxtida Amir Temur, Shohrux va Ulug‘beklardan so‘ng qariyb qirq yil hukmronlik qilgan Husayn Boyqaro zamonini ko‘plab tarixiy va ilmiy manbalar ijobiy baholaydilar. Alisher Navoiy tilida ham Husayn Boyqaro zamonini “...farxunda zamon va xujasta davron” nomini oladi. Chunki, haqiqatdan ham bu davrda Hirotda nisbiy tinchlik hukmron bo‘lib, buning natijasida mamlakatning iqtisodiy-siyosiy hayotida ancha o‘zgarish va oldinga siljish yuz bergan edi. Ayniqsa, ilm-u fan va san‘atning rivojlanishi, mamlakatda madaniy hayotning yuksalishiga sabab bo‘ladi.

Sulton Abu Said hukmronligi davrida turli joylarga tarqalib ketgan ilmu fan, adabiyot va san'at egalarining ko'pchiligi Husayn Boyqaro rahnomaligida Hirot markaziga yig'iladilar. Ularning barchasi podsholik tomonidan himoyalaniib, yuksak e'tibor va qadriyat topganliklari bois o'z faoliyatlarining mukammal bo'lishiga intildilar. Husayn Boyqaroning bu kabi ezgu ishlaridan quvongan, qalbi g'urur va iftixor tuyg'ulari bilan to'lgan Alisher Navoiy yozadi:

Shohi G'oziy eshigin tengri base tutsinkim,
Notavonlarg'a panoh o'ldiyu xonlarg'a maloz.

Mamlakatda arxitektura va me'morchilik sohasida ham juda katta ishlar qilinganligini, Hirotida yirik qurilish inshootlari va badiiy me'morchilik ansambllari barpo etilganligini va bu ishlarning tepasida Alisher Navoiyning o'zi turganligini tasdiqlovchi muhim bir hujjat bu tarixchi Xondamirning "Makarim ul-axloq" asaridir[8]. Shuni ta'kidlash lozimki, Navoiyning o'z tashabbusi bilan Hirotida 370 ga yaqin turli binolar (madrasalar, kutubxonalar, hammom, kasalxona va h.k.)lar qurildi. Shu sababli fanda bu davr Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davri deb ham yuritiladi. Alisher Navoiy bu davrda har taraflama rivojlangan, yuksalishda bo'lgan Hirot singari mamlakat yo'qligini va Husayn Boyqaroga qiyos qilg'udek ibratomuz shoh yo'qligini e'tirof etgani holda obod va go'zal Hirot bog'larini jannatga o'xshatadi:

Navoiy, o'zga shahu o'zga kishvar etma havas,
Ki, topmag'ung shahi G'oziy birla Hiri yanglig'.
yoki:

Navoiy behisht ichra farog'at yo'lin surding,
Namudoridur aning Hirining xiyoboni [9].

Bu davr, ayniqsa, adabiy muhitning yuksalishi, madaniyatning yuqori darajada taraqqiy etishi bilan xarakterlanadi. Chunki bu davr adabiy muhitini Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Husayn Boyqarolar boshqarar edilar. Shu sababli mamlakatda juda ko'plab ta'lant va iste'dod egalari, buyuk shoirlar, rassomlar, musiqa san'ati ustalari, me'morlar va boshqa fan arboblari yetishib chiqdilar.

Navoiyning quyidagi bayti ham xuddi shu adabiy muhit faoliyatini madh etishga bag'ishlanganday taassurot qoldiradi va shoirning o'z davriga bo'lgan ijobiy munosabatini belgilaydi:

Xush ulki, bazmda oylar teparda arg'ushtak,
Shah anda tambura cholib, Navoiy desa qo'shuq.

Ammo bu davrni ijtimoiy-siyosiy va ichki ziddiyatlarsiz, sokinlikda o'tgan bir davr edi, deb ham bo'lmaydi. Saroy ahlining hammasi ham bunday yuksalish va

osoyishtalikning tarafdorlari emas edilar. Shoh saroyi shaxsiy boylik orttirish ilinjida hech narsadan qaytmaydigan manfaatparast ig'vogarlardan ham holi emas edi. Shu kabi teskari kuchlarning fitna-fasodlari, ig'vogarliklari tufayli saroyda tartibsizlik, mamlakatda adolatsizliklar avj oldi. Buning ustiga taxt va mamlakat talab qilib chiqqan farzandlari bilan Husayn Boyqaro o'rtasidagi nizo va kelishmovchiliklar, o'zaro urush va qon to'kishlar oqibatida mamlakatda hukmron bo'lgan nisbiy tinchlikka ham chek qo'yiladi. Xuroson davlati yana urush janjallar, ur-yiqit va zo'ravonliklar makoniga aylanadi. Husayn Boyqaro o'ziga qarshi bosh ko'tarib chiqqan ayrim farzandlarining qo'zg'olonlarini mamlakatning ba'zi bir hokimligini kelishuvga binoan in'om etish bilan bostirsa, ayrimlarini jangu jadal bilan daf' etishga majbur bo'lar edi. Navoiy hayotining keyingi sahifalari mamlakatning xuddi shu og'ir davri, musibatli damlari bilan chambarchas bog'liq. Binobarin, Navoiyning bu davrga mansub ijodida davr muammosi va dardi bilan yashagan shoir qalbining mungli nolasi, alamli faryodi o'z aksini topgan:

Navoiy, qilma ayb afg'onu faryodimki, davrondin.

Ne bir faryodu o'n afg'onki, yuz faryodu ming afg'on [10].

Navoiyning bu davrdagi she'rlarida ham avvalgi davrdagi kabi zamondan nolish, uning jabr-u sitamlaridan nafratlanish kayfiyatlari turli xil kechinma va holatlar tasvirida ifodalanadi va hayotiy mazmun kasb etadi. Biroq shoirning bu davrdagi ruhiyati va zamonga bo'lgan salbiy munosabati sulton Abu Said davridagi kechinma va mulohazalaridan keskin farq qiladi. Chunki, bu davr Navoiyga nisbatan moddiy qiyinchilik tug'dirmaydi, balki ma'naviy ziddiyatlar, ruhiy iztiroblar keltirib chiqaradi. Toj-u taxt va davlat balosiga griftor bo'lgan shahzodalar o'rtasidagi qonli kurashlar oqibatida ming-minglab xalq xonavayron bo'ladi. Bu urushning natijasida xalq xo'jaligi izdan chiqib, mamlakatning siyosiy ahvoli og'irlashdi. Tobora inqirozga yuz tutayotgan Husayn Boyqaro davlatidan ko'rk va tarovat yo'qola boshlaydi. Shoh va shahzodalar o'rtasida mehru vafo sadoqat va qondoshlik rishtalari uzuladi. Bularning barchasi buyuk shoirning ko'z oldida sodir bo'layotgan voqea-hodisalar edi. Bu hodisalardan esa shoir qalbining o'rtanmasligi, o't bo'lib yonmasligi mumkin emas edi:

Ne ajab qon yig'lasam ahli zamondin dam-badam.

Kim, alardin g'am uza g'amdur, alam uzra alam.

So'z demak bo'lmas alarning zulmi yoxud lutfidin,

Chunki, ul ko'ptin dog'i ko'ptur, bu kamdin dog'i kam.

Alisher Navoiyning bevosita o‘z-o‘ziga murojaat tarzida yozilgan bayt va g‘azallarida zamon va zamon ahli haqidagi mulohazalari tanqidiy ruhda ifodalangan bo‘lib, unda shoirning zamonga nafrati, zamon ahliga nisbatan cheksiz g‘azabi tasvir etilgan:

Tut mug‘tanam, o‘ldung esa xushhol zamone
Nevchunki, zamon hosqi erur, ahli zamon ham.

yoki:

Bizga yo‘qtur olam ahlidin jafodin o‘zga ish,
Har zamon yuz dardu har dam yuz balodin o‘zga ish [11].

Alisher Navoiyning ko‘p vaqti va xizmati mamlakatda tinchlikni ta‘minlashga, markazlashgan Xuroson davlatini kichik bo‘laklarga bo‘linib, yo‘q bo‘lib ketishdan asrashga, ota va farzandlar o‘rtasidagi mehr-u muhabbatni tiklashga sarf bo‘ldi. Ammo, Navoiyning bu yo‘lda qilgan mehnati va xizmatlari natija bermadi. Chunki, bir shahzodani pand-nasihati yo‘li bilan to‘g‘ri yo‘lga solsa, ikkinchi bir shahzoda, albatta, bosh ko‘tarib chiqar edi. Shu bois mamlakatda adolat-sizlik va zo‘ravonlik kuchaydi, hokim tabaqalar o‘rtasida bir-biriga nisbatan dushmanlik munosabatlari avj oldi. Shuning uchun ham bunday qabihliklardan bezgan shoir

Charxdin qilsam shikoyat so‘rmang, ey xalqi zamon,
Xalqning javrinimu, oshubi zamonimu deyin? [12]
deya alamli faryod chekadi.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning bu kabi she‘rlari ana shunday real hayotiy zamin asosida maydonga kelgan bo‘lib, shoirning o‘z davri va davr ahli ustidan chiqargan hukmining ifodasidir.

ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя: МАТ. 20 томлик. Т.1. –Т.: “Фан”, 1987. 13-17-б.
2. Alisher Navoiy she‘riyatida shoir hasbi holining badiiy talqini (“Xazoyin ul-maoniyy” asosida). – Germaniya: “GlEbe”, ISBN-13: 9786200626325. <https://www.barnesandnoble.com>. 10-29-2021. Pages: 104.
3. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Т.6. –Т.: “Фан”, 1990. –15-б.
4. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Т.5. –Т.: “Фан”, 1990. – 260-б.
5. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Т.3. –Т.: “Фан”, 1988. – 531-532-б.
6. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Т.4. –Т.: “Фан”, 1990. – 512-б.

7. Алишер Навоий. Мукам. асар. тўплами. Т.3. –Т.: “Фан”, 1988. – 278-338-б.
8. Хондамир “Мақорим ул-ахлоқ”. –Т.: “Фан”, 1967. – 157-б.
9. Раҳимова Г. Алишер Навоий ғазалиётида ҳасби ҳол //Ўзбек тили ва адаб.1998.1-сон. 59-61 б.
- 10.Раҳимова Г. Алишер Навоий ғазалиётида ҳасби ҳол //Ўзбек тили ва адаб.-1998.1-сон. 61-б.
11. Раҳимова Г. Алишер Навоий шеърлятида шарҳи ҳолат //Ўзбек тили ва адаб.1999.1-сон. 53-б.
12. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Т.6. –Т.: “Фан”, 1990. – 178-б.

G.Raximova,

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Gulbahorrahimova17@gmail.com

S.Norbekova

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi